



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti
TARIX FAKULTETI



TARIX JAM'YAT

JOURNAL 2023

No 5



HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

Bosh muharrir: **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.**

Bosh muharrir **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**
o‘rinbosari:

Mas’ul kotib: **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Axmurodov D.Q

TILNING MULOQOT VOSITASI SIFATIDAGI INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Falsafa,
tarbiya va huquq ta'limi” kafedrasи o'qituvchisi

Xoldorova Zuxra Faxriddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti talabasi

sanjarnormatov2991@gmail.com

+998883299200

Annotatsiya: Ushbu maqolada til orqali insonlar o'zaro bir-biri bilan muloqot qilishi, o'z o'y-fikrlarini, istak va hohishlarini bir-biriga yetkazishi. Yani ayrim kishi muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalq, davlat, jamiyatning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, ular o'rtasidagi til vositasida muloqotning qanday prinsiplar asosida o'rnatilganligi haqida fikr va muloxoza yuritadi.

Kalit so'zlar: Muloqot, til, munosabatlар, hamkorlik, shaxs, jamiyat, verbal, noverbal, bag'rikenglik, aloqa, muvozanat, inson

Annotation: In this article, it is discussed how humans communicate with each other through language, expressing their thoughts, desires, and aspirations to one another. It reflects on the principles underlying communication through the medium of language, among different social groups, nations, peoples, states, and societies, and how it impacts the nature and prospects of their interactions.

Keywords: Communication, language, relationships, cooperation, personality, society, verbal, nonverbal, tolerance, communication, balance, human

Аннотация: В данной статье рассматривается, как люди общаются между собой на языке, выражая свои мысли, желания и амбиции друг другу. Она отражает принципы общения на основе языка между различными социальными группами, нациями, народами, государствами и обществами, и как это влияет на характер и перспективы их взаимодействия.

Ключевые слова: общение, язык, отношения, сотрудничество, личность, общество, вербальное, невербальное, толерантность, общение, равновесие, человек.

Insonning o'z o'zini anglashi, shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishi turli tuman ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va mustahkamlanishida til muhim vosita hisoblanadi. Til orqali insonlar o'zaro bir-biri bilan muloqot qilishadi, o'z o'y-fikrlarini, istak va hohishlarini bir-biriga yetkazadi. Yani ayrim kishi

muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalq, davlat, jamiyatning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, ular o‘rtasidagi til vositasida muloqotning qanday prinsiplar asosida o‘rnatilganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois ham til muloqot vositasi sifatida jamiyat hayoti bilan, shu tilning ona tilida so‘zlashuvchi xalq bilan bog‘langan. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga til ham rivojlanadi, o‘zgaradi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tilda o‘z aksini topadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 1 oktyabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlagan nutqida “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”¹, - degan so‘zi ham jamiyat va davlat hayotida tilning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradi.

Shuning uchun til masalasi barchamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til borasida K. Marks “Til faqat ehtiyojdan, boshqa odamlar bilan muloqot qilishning shoshilinch ehtiyojidan kelib chiqadi”² degan fikrni ilgari surgan Tilning inson mehnat faoliyati bilan bog‘liq xolda vujudga kelganligini isbotlashga intiladi. Bunga sabab sifatida insonlar birgalikda mexnat qilish davomida til tajriba va bilimlarini almashishga yordam beruvchi asosiy vosita sifatida baxolaydi va shu bilan birga til inson tafakkur, ong bilan bevosita bog‘liqligini odamlar mehnat jarayonida egallagan atrofdagi voqeylek haqidagi bilimlar tilda - so‘zlar, iboralar va jumlalarda mustahkamlanishi tushuntiradi.

Har bir til murakkab tizimdir. Bu tizimning elementlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va tilda tizimlarni tashkil etuvchi tovushlar, so‘zlar, gaplardan iboratdir. Shu ma’noda til tarixan shakllangan mazmunli shakllar tizimi bo‘lib, uning yordamida kishilar o‘z fikrlarini o‘ziga xos jamoat mulkiga va hatto jamiyat va davlatlarning ma’naviy boyligiga aylantira oladi.

Shu o‘rinda "Muloqot" tushunchasi ancha kengroq, chuqurroq bo‘lishi mumkin. Bu o‘tmishga nazar tashlaganda aniq bo‘ladi. Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotSIONAL holati haqidagi ma’lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma’lum tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotSIONAL holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va bunda til shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

¹ <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirzivoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-tim>

² Баранов О.С. Идеографический словарь русского языка. – М.: Сбор соч. 1992 с-29

Bu masala bo‘yicha Suqrot shubhasiz jamoatchilikning murosaga kelishi va ishonchini shakllantirishning eng yaxshi usuli sifatida yuzma yuz til vositasida muloqat qilishni rag‘batlantirgan. Suqrot o‘zining assosiy falsafiy g‘oyalarini og‘zaki aytgan holda umumiy omma ixtiyoriga yetkazib borgan. U o‘zing fikrlarini monolog shaklida emas dialog shaklida olib borgan. Bunda suhbatdosh bilan muloqot qilish ortidan o‘zaro fikirlar qarama-qarshiligini yuzaga kelgan va baxs-munozara orqali haqiqatni yuzaga chiqarishga intilgan.

Suqrot o‘z g‘oyalarini yozuvlardan foydalanib kitob shaklida qoldirmagan. Afinada o‘sha davrda yozish uchun manbalar yetarli bo‘lsada. U hech narsa yozib qoldirmadi. Yozuv o‘z o‘zidan javob bermaydi deb o‘ylardi Suqrot “Men Phaderusning fikrlariga qo‘shilmayman yozuv afsuski rasmga o‘xshaydi, rassom asarlarida hayotga nisbatan munosabat bor ammo agar siz ularga savol bersangiz tinmay sukut saqlashadi”³ shundan ham ma’lumki Suqrot inson til vositasi orqali bir-biri bilan so’zlashganda o‘z aro tajriba almashib kamolot tomonga yetishi mumkinligi tushunturmoqchi bo‘lgan.

Til vositasida ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi.

Shu ma’noda aytadigan bo‘sak insonlar o‘rtasida munosabatlarda til doimo muhim bo‘lgan. Bu jamiyatda insonlar aro axborot almashuvining muhim vositasi hisoblanadi. Bu inson ichki meni va g‘oyalarini umumiy yoki bo‘lmasam yagona bo‘lgan individ uchun qisman, ba’zan to‘liqiroq inson haqida tushuncha hosil qilishga zamin yaratadi. “Umuman til masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak til odamlar foydalanadigan eng takomillashgan shakllarga ega bo‘lgan muloqot vositasi tushuniladi.”⁴ Til - bu ikki shaxsning fikrlari, his-tuyg’ulari ifodalash va yetkazishga yordam beradigan vositadir. Boshqacha qilib aytganda, til muloqotning asosi hisoblanadi. Til muloqot vositadir. Til muloqotning qon aylanish tizimiga o‘xshaydi. Chunki tilsiz muloqot imkonsizdir. Eng muhimi, til hissiyotlarni uzatuvchi yoki ma’lumotlar almashishdagi muhimdir shu asosda psixologik ta’sirning uch vositasi farqlanadi.

³ Gunnar S. Nils G. Falsafa tarixi. “Sharq” nashiriyoti T -2002 y 77-bet

⁴ Ne’matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rnii // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. -№ 6.

Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarini topib, sheringiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

No verbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o'rinni, xolatlari (yaqin, o'zoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko'rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

“Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan.”⁵ Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak til til va muloqot o'rtasida ba'zi fundamental va mantiqiy farqlar borligini aytishimiz mumkin, siz ularni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Biroq, til va muloqot ikkalasi ham bir-biri bilan bog'liq. O'zaro muloqot uchun bizga til kerak. Til muloqot vositasi bo'lganligi sababli, har-xil bo'lishi mumkin, lekin, albatta, muloqot jarayoni universal tarzda bir xil. Muxtasar qilib aytganda, Muloqot murakkab jarayon bo'lib inson bunda ko'p narsalarni hisobga olishiga to'g'ri keladi Shuning uchun ham hozirgi kunda jaxonda va hususan mamlakatimizda ham muloqot jarayonini ilmiy taxlillar asosida to'g'ri yo'lga qo'yish juda muhim va dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent, 1992
2. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, 2017.

⁵ P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma'ruzalar to'plami). T. 2003. ToshDPU. 86-bet

3. Баранов О.С. Идеографический словарь русского языка. – М.: Сбор соч. 1992-с-29
4. Ne'matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. -№ 6.
5. Gunnar S. Nils G. Falsafa tarixi. “Sharq” nashiriyoti T -2002 y 77-bet
6. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar to‘plami).T. 2003. ToshDPU.
7. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirzivoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaql-davlatchilik-tim>
8. <http://www.sarahmei.com/blog/2014/07/15/programming-is-not-math/>
9. <https://www.scratchjr.org>